

---

## Iftorlik dasturxonlari yozildi

Ayni kunlarda yurtimizning barcha mahallalarida iftorlik tadbirlari o'tkazilmoqda. Mehr-saxovat oyi munosabati bilan o'tkazilayotgan iftorlik tadbirlari hamda yo'qlovlar davomida fuqarolarga mehr va saxovat ulashilmoqda.

“Mirzo Ulug‘bek” mahalla fuqarolar yig‘inlarida yashovchi bir guruh yoshi ulug‘ insonlar, faollar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar a‘zolari uchun tashkillangan iftorlik tadbirida yuz nafardan ziyod fuqarolar uchun dasturxon yozildi.

Inson qadrini ulug‘lash, muhtojlarga ko‘mak ko‘rsatish maqsadida yozilgan to‘kin dasturxon atrofida jam bo‘lgan nuroniylar yurtimizga tinchlik, oilalarimizga totuvlik, ro‘zg‘orimizga qut-baraka tilab, duo qilishdi.

Iftorlik tadbirlari har bir mahallalarda davom etmoqda.

2023-04-11 17:19:25